
ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2026 / № 2,3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL ADABIYOT TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE,
EDUCATION

Филологические
исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА,
ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz - 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she’riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

CHO'LPONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANIDAGI MAQOLLARNING INGLIZCHA TARJIMALARIDA LINGVOMADANIY KONSEPTLARNING IFODALANISHI

Jumanova Orzigul,
Qarshi davlat texnika universiteti
xorijiy tillar kafedrasi assistenti

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va milliy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan paremiologik birliklar hisoblanadi. Shu sababli ularni badiiy asar tarkibida o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya va tarjimashunoslik uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Xususan, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan maqollar qahramonlar xarakterini ochish, voqealar rivojini ta'sirchan ifodalash hamda o'zbek xalqining milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini yoritishda muhim badiiy vosita vazifasini bajaradi. Nafisa Ortiqovaning ta'kidlashicha, «maqollar badiiy asarning mazmunini boyitish bilan birga o'zbek xalqining hayot falsafasi, ijtimoiy munosabatlari va an'anaviy qarashlarini aks ettirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi».[1] Mazkur maqollarning ingliz tiliga tarjima qilinishi esa alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi. Chunki maqollar tarkibidagi milliy-madaniy mazmun, diniy tasavvurlar, ijtimoiy munosabatlar hamda xalq mentalitetini ifodalovchi konseptlarni boshqa til vositalari orqali to'liq ifodalash har doim ham oson emas. Lingvokulturologik yondashuvga ko'ra, til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, har bir til birligi xalqning milliy tafakkuri va konseptual olamini ifodalaydi. Xususan, konsept millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi tafakkur birligi bo'lib, u til vositasida namoyon bo'ladi. Sh. Safarov konseptni kognitiv tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri sifatida baholab, uning inson tafakkuri va til o'rtasidagi bog 'liqlikni ochib berishini ta'kidlaydi.[2] N. Mahmudov esa tilni milliy tafakkur va madaniyatni aks ettiruvchi eng muhim vosita sifatida e'tirof etib, til birliklarini xalqning madaniy xotirasi bilan uzviy bog'liq hodisa deb hisoblaydi.[3] Z. Xalilovaning fikricha, konsept markazida qadriyat tushunchasi yotadi va aynan shu jihat til hamda madaniyat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlaydi.[4] Har bir konsept umuminsoniy, milliy va individual komponentlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan madaniy birlik hisoblangan maqollatni tarjima qilish eng murakkab masalalardan biridir. Peter Newmark madaniy xos birliklarni tarjima qilishda ma'no va madaniy funksiyani saqlash ustuvor vazifa ekanligini qayd etadi hamda bunday hollarda madaniy ekvivalent, tavsifiy tarjima yoki funksional ekvivalent kabi strategiyalardan foydalanishni tavsiya etadi.[5] Mona Baker esa maqol va matallarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy vazifasi semantik ma'noni emas, balki ularning pragmatik ta'siri va kommunikativ funksiyasini qayta yaratishdan iboratligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ekvivalent maqol mavjud bo'lsa undan foydalanish, aks holda parafraz yoki izohli tarjimaga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.[6] Eugene Nida esa dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning muvaffaqiyati asl matn o'quvchisida yuzaga keladigan ta'sirni tarjima o'quvchisida ham hosil qila olish bilan belgilanishini ta'kidlaydi.[7] Yuqorida keltirgan nazariy asoslarga tayangan holda mazkur tadqiqotda Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidagi madaniy xos maqollarning Christopher Fort va Ilhom To'xtasinov tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, ularda qo'llangan tarjima strategiyalari hamda lingvomadaniy konseptlarning saqlanish darajasi tahlil qilinadi.

[1] Ortiqova, N. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida qo'llangan maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari //"Globallashuv davrida turkologiya rivoji masalalari va ta'lim" nomli konfrensiya. 2025. – B. 666–670.

[2] Safarov, Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 220 b.

[3] Mahmudov, N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – №5. – B. 3–16.

[4] Xalilova, Z. Konsept va lingvomadaniyatning o'zaro bog'liqligi // The Role of Science and Innovation in the Modern World. – London, 2023. – B. 46–47.

[5] Newmark, P. A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall International, 1988. – 82-91 p.

[6] Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 2nd ed. London: Routledge, 2011. – 68-77 p.

[7] Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: E. J. Brill, 1964. – 159-166 p.

Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan maqollar qahramonlarning nutqiy xarakteristikasini yaratish, voqealarga xalqona baho berish va milliy tafakkurni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqollarni ingliz tiliga tarjima qilishda Christopher Fort va Ilhom To'xtasinov turli tarjima strategiyalaridan foydalangan bo'lib, bu hol lingvomadaniy mazmunning saqlanish darajasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Roman boshida Zebixon tomonidan aytilgan «Sanamasdan sakkiz dema»[1] maqoli o'zbek xalqining ehtiyotkorlik, sabr va shoshqaloqlikdan tiyilish haqidagi hayotiy tajribasini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Zebixon Saltanatxonni otasining qarorini kutishga undaydi. Christopher Fort uni ingliz tilidagi tayyor paremiologik ekvivalent – «Don't count your chickens before they're hatched»[2] tarzida tarjima qilgan. Mazkur tarjima ingliz tilida keng qo'llaniladigan maqol bo'lib, asl matndagi pragmatik ta'sirni deyarli to'liq saqlaydi. Ilhom To'xtasinov esa ushbu maqolni «Don't be in a hurry»[3] shaklida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning umumiy mazmuni saqlangan bo'lsa-da, uning paremiologik shakli va xalqona obrazliligi yo'qolgan. Demak, Fort lingvomadaniy konseptni ham, maqollik xususiyatini ham saqlagan bo'lsa, To'xtasinov asosan semantik mazmunni yetkazish bilan cheklangan.

«Kambag'al – Xudoyimning suygan bandasi»[4] – o'zbek xalqining diniy dunyoqarashi, sabr va tavakkal konseptlarini mujassamlashtiradi. Asarda Enaxon o'z qashshoqligidan shikoyat qilayotgan paytda ushbu maqol orqali kambag'allikning sinov ekanligi va unga sabr bilan qarash lozimligi ifodalanadi. Christopher Fort uni «The poor are God's most beloved servants»[5] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada diniy mazmun saqlangan bo'lsa-da, o'zbek xalqiga xos emotsional ohang va xalqona ifoda biroz neytrallashgan. Ilhom To'xtasinov mazkur maqolni tarjima qilmagan. Natijada qahramon nutqining milliy koloritini ochib beruvchi muhim lingvomadaniy birlik inglizcha matnda yo'qolgan. Tarjimada kommunikativ ta'sirni saqlash tarjimaning asosiy mezonlaridan biri bo'lib ushbu jihatdan Christopher Fort tarjimasi dinamik ekvivalentlikka yaqinroq bo'lsa-da, maqolning diniy-madaniy fonini to'liq tiklay olmaydi.

«Echkiga o'lim, qassobga yog'«[6] maqoli manfaatlar qarama-qarshiligini ifodalovchi xalq hikmatidir. Asarda Qurvonbibi qizining baxtsiz turmushi haqida kuyinar ekan, ushbu maqol orqali hayotdagi adolatsizlikni ifodalaydi. Christopher Fort maqolni «The goat thinks of its life and the butcher–of meat» [7] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning obrazliligi va ikki qarama-qarshi tomon manfaatlari saqlangan. Bu funksional ekvivalentlikka yaqin yondashuv bo'lib, o'quvchiga asl mazmunni anglash imkonini beradi. Ilhom To'xtasinov esa «Death of the goat does not exist for the butcher!»[8] tarzida deyarli so'zma-so'z tarjima qilgan. Natijada ingliz tili me'yorlariga mos kelmaydigan sintaktik qurilish yuzaga kelgan va maqolning tabiiyligi yo'qolgan. Bu misol tarjimada formal ekvivalentlik har doim ham kommunikativ muvaffaqiyatni ta'minlamasligini ko'rsatadi.

Miryoqub nutqida uchraydigan «Eski og'izdan yangi so'z»[9] maqoli kutilmagan fikr yoki odatdagi qarashlardan farqli mulohazani ifodalaydi. Mingboshining Zebiga nisbatan aytgan so'zlaridan hayratlangan Miryoqub ushbu maqol orqali o'z ajablanishini bildiradi. Christopher Fort «A new word to add to the old-?»[10] tarjimasini tanlagan. Garchi maqolning umumiy mazmuni saqlangan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi obrazlilik to'liq tiklanmagan. Ilhom To'xtasinovning «New words of the old mouth»[11] tarjimasi esa so'zma-so'z yondashuv mahsuli bo'lib, ingliz o'quvchisi uchun tabiiy paremiologik birlik sifatida qabul qilinmaydi.

Miryoqubning imperiya taqdiri haqidagi mulohazalari jarayonida qo llangan «Eshagiga yarasha tushovi, egasiga yarasha pagoni»[12] maqoli jamiyatdagi har bir shaxsning mavqei va ijtimoiy maqomiga mos munosabat shakllanishini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Miryoqub podsho hokimiyatining zaiflashuvi davlat boshqaruvi tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini anglaydi. Christopher Fort ushbu maqolni «There›s a saddle for every ass. I guess there's an epaulette for every officer.»[13] tarzida tarjima qilgan. Tarjimada maqolning ikki qismli parallel tuzilishi hamda obrazliligi imkon qadar saqlangan. Ayniqsa, «epaulette» leksemasining qo'llanishi «pa-

[1] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 20 b.
[2] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 59 p.
[3] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 26p.
[4] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 35b.
[5] Christophor Forte "Day and Night". – US: Academic Studies Press, 2019. – 69p.
[6] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 114 b.
[7] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 129 p.
[8] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 95-p.
[9] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 128 b.
[10] Christophor Forte "Day and Night". – US: Academic Studies Press, 2019. – 140p.
[11] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 106-p.
[12] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 159 b.
[13] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 165 p.

gon» tushunchasining harbiy-ma'muriy mazmunini ingliz o'quvchisiga tushunarli shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Tarjimon bunda madaniy moslashtirish va semantik ekvivalentlikni uyg'unlashtirgan. Ilhom To'xtasinov tarjimasida mazkur maqol alohida birlik sifatida berilmagan. Bunday yondashuv matnning umumiy mazmunini soddalashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, maqolning xalqona uslubi va uning badiiy-ekspressiv vazifasi inglizcha matnda to'liq namoyon bo'lmaydi. Shunga qaramay, asarning asosiy g'oyasi va Miryoqubning siyosiy mushohadalari izchil saqlanib qolgan.

Poshshaxon nutqida uchraydigan «Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq»[1] maqoli insonning tashqi ko'rinishi bilan uning ichki mohiyati har doim ham mos kelmasligini ifodalovchi lingvomadaniy birlikdir. Asarda ushbu maqol Sultonxonning kutilmaganda samimiy va xushmuomala bo'lib qolganidan shubhalangan Poshshaxonning ichki kechinmalarini ochib beradi. Christopher Fort maqolni «Shiny on the surface, but sharp underneath»[2] [shaklida tarjima qilgan. Tarjimada asl maqoldagi qarama-qarshilik saqlangan bo'lsa-da, «qaltiroq» so'zining yashirin xavf va ishonchsizlikni anglatuvchi ma'nosi «sharp» orqali qisman qayta talqin qilingan. Natijada obrazlilik saqlanadi, biroq semantik urg'u biroz o'zgaradi. Ilhom To'xtasinov esa ushbu maqol uchun ingliz tilida keng qo'llaniladigan «Don't judge the book by its cover»[3] maqolini tanlagan. Mazkur variant o'zbek maqolining kommunikativ vazifasini va asosiy g'oyasini ingliz o'quvchisiga tabiiy tarzda yetkazadi. Garchi unda asl maqoldagi tashqi va ichki holat o'rtasidagi poetik qarama-qarshilik to'liq aks etmasa-da, pragmatik ta'sir va tarbiyaviy mazmun muvaffaqiyatli saqlangan. Shu jihatdan Christopher Fort asl obrazni, Ilhom To'xtasinov esa ingliz tilidagi paremiologik ekvivalent orqali funksional mazmunni ustuvor deb bilganini kuzatish mumkin.

«Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin»[4] maqoli jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, boylik va mavqening inson fikriga beriladigan bahoga ta'sirini ifodalaydi. Asarda ushbu maqol boy tabaqa vakillariga ko'rsatiladigan imtiyozli munosabatni tanqidiy ruhda ochib beradi. Christopher Fort tarjimasida «Even if he's a hunchback, he's still the son of a landowner»[5] varianti qo'llanilgan. Tarjimada «boy» tushunchasi «landowner» orqali konkretlashtirilgan bo'lib, bu Cho'lpon tasvirlagan tarixiy davrning ijtimoiy tuzilishini ingliz o'quvchisiga yaqinroq tushuntirishga xizmat qiladi. Ilhom To'xtasinov esa «There is a saying the son of the rich speaks though his mouth is curved»[6] shaklini tanlagan. Ushbu tarjima asl maqolning leksik tarkibini saqlashga intilgan bo'lib, o'zbekona ifoda uslubini imkon qadar yaqinlashtirish maqsadini ko'zlaydi. Natijada milliy kolorit saqlanadi, biroq ingliz tili paremiologik me'yorlari nuqtai nazaridan ibora tabiiyroq shaklga ehtiyoj sezadi. Har ikkala tarjima ijtimoiy tengsizlik konseptini ifodalashda o'ziga xos yondashuvni namoyish etadi: biri tarixiy-madaniy moslashtirishni, ikkinchisi esa milliy ifoda shaklini saqlashni ustuvor deb biladi.

Roman davomida qo'llangan «Puli borning gapi o'ng, puli yo'qning gapi to'ng»[7] maqoli moddiy boylikning jamiyatdagi mavqe va inson fikrining qabul qilinishiga ta'sirini ifodalaydi. Ushbu maqol orqali Cho'lpon o'sha davrdagi ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy tafovutlarni xalqona hikmat vositasida yoritadi. Christopher Fort «*Whoever has the money has the right*»[8] tarzidagi tarjimani tanlagan. Tarjimada maqolning asosiy g'oyasi ixcham va tabiiy ifodalangan bo'lib, ingliz o'quvchisi uchun tushunarli pragmatik ta'sir hosil qiladi. Ilhom To'xtasinov esa «A rich man's word is right, but a poor man's is left»[9] variantini qo'llagan. Ushbu tarjima o'zbek maqolining sintaktik parallelizmi va qarama-qarshi tuzilishini saqlashga intiladi. «Right» va «left» qarama-qarshiligi orqali asl matndagi «o'ng» va «to'ng» so'z o'yiniga ma'lum darajada yaqinlashilgan. Bunda tarjimon maqolning badiiy shaklini saqlashga alohida e'tibor qaratgan. Ikkala tarjima ham ijtimoiy tengsizlik konseptini ifodalashga xizmat qiladi, biroq Christopher Fort kommunikativ tabiiylikni, Ilhom To'xtasinov esa asl maqolning strukturaviy xususiyatlarini saqlashni ustuvor yo'nalish sifatida tanlagan. Shu bois har ikkala tarjima o'z metodologik yondashuvi bilan bir-birini to'ldiradi va maqolning turli jihatlarini ingliz tilida aks ettirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan maqollar asarning badiiy-estetik qiymatini oshirish bilan birga, o'zbek xalqining milliy tafakkuri, axloqiy qarashlari, diniy e'tiqodi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ularning ingliz tiliga tarjimasida Christopher Fort va Ilhom

[1] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 215 b.
[2] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 208 p
[3] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 158-p.
[4] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 261 b.
[5] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 242 p.
[6] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 195p.
[7] Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Turon zamin nashriyoti, 2023. – 261 b.
[8] Christophor Forte. Day and Night. – US: Academic Studies Press, 2019. – 242p.
[9] I.M. Tukhtasinov, U.R. Yuldashev, A.A. Khamidov. – Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2023. 195p.

To'xtasinov turli tarjima strategiyalaridan foydalangan. Christopher Fort ko'proq madaniy va funksional ekvivalentlikka tayanib, ingliz tilida tabiiy qabul qilinadigan paremiologik birliklarni tanlash orqali maqollarning pragmatik ta'siri hamda kommunikativ vazifasini saqlashga intilgan. Ilhom To'xtasinov esa ayrim hollarda asl matnning leksik-semantik tuzilishini saqlashga, ayrim hollarda esa parafraz va tayyor ingliz maqollaridan foydalanishga ustuvorlik bergan. Har ikki tarjimada maqollarning asosiy mazmuni yetkazilgan bo'lsa-da, ayrim lingvomadaniy konseptlar va milliy kolorit turlicha darajada ifodalangan. Tadqiqot natijalari maqollar tarjimasida faqat semantik ekvivalentlik emas, balki ularning madaniy, pragmatik va konseptual xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa o'zbek badiiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida lingvomadaniy yondashuvni qo'llash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

Rezyume. Mazkur maqolada Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanida qo'llangan madaniy xos maqollarning Christopher Fort va Ilhom To'xtasinov tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqollarning lingvomadaniy konseptlari, tarjima strategiyalari hamda milliy-madaniy mazmunning saqlanish darajasi o'rganildi. Tahlil natijalari Christopher Fort tarjimasida madaniy va funksional ekvivalentlik strategiyalari ustunligini, Ilhom To'xtasinov tarjimasida esa literal tarjima, parafraz va ayrim hollarda madaniy ekvivalentlardan foydalanilganini ko'rsatdi. Tadqiqot maqollar tarjimasida lingvomadaniy yondashuvning muhimligini asoslaydi.

Rezyume. This article presents a comparative analysis of the English translations of culture-specific Uzbek proverbs in Cho'lpon's novel Night and Day, translated by Christopher Fort and Ilhom To'xtasinov. The study examines the linguocultural concepts embodied in the proverbs, the translation strategies employed by both translators, and the degree to which the national and cultural meanings are preserved in the target language. The findings indicate that Christopher Fort primarily employs cultural and functional equivalence, whereas Ilhom To'xtasinov mainly relies on literal translation, paraphrase, and, in some cases, cultural equivalents. The research highlights the importance of a linguocultural approach in translating proverbs and other culture-bound expressions.

Резюме. В данной статье проводится сравнительный анализ английских переводов культурно-специфических узбекских пословиц, использованных в романе Чулпана «Ночь и день», выполненных Кристофером Фортом и Илхомом Тухтасиновым. Исследуются лингвокультурные концепты, отражённые в пословицах, переводческие стратегии, а также степень сохранения национально-культурного содержания в переводе. Результаты исследования показывают, что Кристофер Форт преимущественно использует стратегии культурной и функциональной эквивалентности, тогда как Илхом Тухтасинов чаще прибегает к буквальному переводу, перефразированию и, в отдельных случаях, к использованию культурных эквивалентов. Исследование подтверждает важность лингвокультурного подхода при переводе пословиц и других культурно маркированных языковых единиц.